

# Tashrif buyuruvchilar uchun axborot

## Muzey ish vaqti

Dushanba	10:00–17:00
Seshanba	Yopiq*
Chorshanba	10:00–17:00
Payshanba	10:00–20:00
Juma	10:00–17:00
Shanba va yakshanba	10:00–17:00

- Ish kunlarida 15:00 dan keyin kirish uchun chegirma bor
- \*Xotira kuni va Mehnat kuni orasida muzey seshanba kunlari 10:00 dan 17:00 gacha ochiq bo'ladi.
- Bayram kunlari yopiq: Yangi yil, Pasxa, Shukronalik kuni va Rojdetsvo

## Savollar va fikr-mulohazalar

Tashrifingiz haqida fikr-mulohaza bildirish yoki savollar yuzasidan [visitorservices@carnegiemuseums.org](mailto:visitorservices@carnegiemuseums.org) manziliga email yozing yoki 412.622.3131 raqamiga telefon qiling.

## Carnegie San'at muzeyi

Instagram: [@carnegiemuseumofart](https://www.instagram.com/carnegiemuseumofart)  
Twitter: [@cmoa](https://twitter.com/cmoa)  
Facebook, YouTube, LinkedIn: Carnegie San'at muzeyi

## Carnegie Tabiiy tarix muzeyi

Facebook, YouTube, Instagram, TikTok: [@carnegiemnh](https://www.instagram.com/carnegiemnh)

## Fossil Fuels kafesi

Ochsiz, lekin muzeyi ko'proq tomosha qilmoqchimisiz? Sendvich yoki salat tayyorlab olish va olib ketiladigan yeguliklarni olish uchun Fossil Fuels kafesiga kirib o'ting. 10:00 dan 16:00 gacha ochiq

## Galereyaning yopilishi

Muzeylarimiz doim o'zgarmoqda! Ayrim joylar ba'zida maxsus tadbirlar yoki galereyani yaxshilash uchun yopiladi. Savollaringiz bo'lsa, qabul bo'limiga murojaat qiling.

## Salomatlik va xavfsizlik qoidalari

Quyidagilar taqiqlanadi:

- Muzey ichida yoki kirish eshiklaridan 20 fut masofada chekish, saqich chaynash yoki elektron sigaretlardan foydalanish.
- Muzey hududiga qurol, o'qotar qurol yoki zararli materiallarni olib kirish.
- Qo'pol, tajovuzkor yoki haqorat qiluvchi xatti-harakatlar.

## Tashrif buyuruvchiga ko'rsatmalar

Ko'rgazmaga qo'yilgan asarlar va kolleksiyalarni parvarishlar barchamizning burchimizdir. **Itimos, quyidagilarni qilmang:**

- Galereyalarda yeyish va ichish.
- Asar yoki kolleksiyalarga teginish.
- 12 yoshdan kichik bolalarni kattalar qarovisiz qoldirish.
- Yugurish, itarish va turtish.
- Bolalarni yelkangizda ko'tarish.
- Galereyalarda soyabon olib kirish. Garderob va lokerlar mavjud.
- Galereyalarda ryukzak yoki ryukzak uslubidagi bola ko'tarish vositasini taqim yurish. Ryukzakni oldingiz yoki yoningizda olib yurishga ruxsat etiladi.

## Maxsus imkoniyatlar

Muzeylar barcha mehmonlar kirishi mumkin bo'lgan dastur va ko'rgazmalarni tashkillashtirish ustida ish olib bormoqda. Agar biror qo'shimcha sharoit haqida savolingiz bo'lsa, qabulxonalarga murojaat qiling.

## Bolalar aravachasi va nogironlar aravachalari

- Biz nogironlar va bolalar aravachalarini taqdim qilamiz yoki o'zingiznikini olib kelishingiz mumkin.
- Ayrim galereyalarga bolalar va nogironlar aravachalarida kirish cheklangan bo'lishi mumkin.

## Suratga olish

- Faqat shaxsiy, notijoriy maqsadlarda an'anaviy tarzda suratga olishga ruxsat etiladi.
- Chaqnoq, tripod, kamera qopi va kamera uzaytirish dastaklarini ishlatish taqiqlangan.
- Asarlardan kamida ikki fut masofa uzoqlikda turing.
- Carnegie San'at muzeyi galereyalarida videoga olish taqiqlangan.

Carnegie Museums  
of Art and Natural History

Sponsored by

